

Izlash



Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

**1-ILOVA**  
Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

**2-ILOVA**  
Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasini 2021 — 2023-yillarda jihozlash PARAMETRLARI

**3-ILOVA**  
Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida qurilish-montaj va jihozlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh TARKIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.11.2021 yildagi 713-sон

Kuchga kirish sanasi

26.11.2021

Qo'shimcha axborot

Uzlashish

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

### ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI VA UNING KLINIKASI FAOLIYATINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish, tibbiyot sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lif standartlarini joriy etish, ta'lif va ilm-fanni amaliy tibbiyot bilan uyg'unlashtirish hamda "tibbiy ta'lif-tadqiqot-klinika" tizimini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar Andijon davlat tibbiyot instituti (keyingi o'rinnarda — Institut) va uning klinikasi (keyingi o'rinnarda — Klinika) nufuzini xalqaro darajaga ko'tarish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar etib belgilansin:

o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish;

ta'lif dasturlarini xalqaro tibbiy ta'lif federatsiyasi (WFME) hamda Klinikani xalqaro JCI (Joint Commission International) tashkilotining talab va standartlariga moslashtirgan holda bosqichma-bosqich akkreditatsiyadan o'tkazish, shuningdek, ularni xalqaro ta'lif va tibbiy yordam ko'rsatish dasturlariga integratsiya qilish choralarini ko'rish;

o'quv-pedagogik salohiyatni rivojlantirish, kadrlarning kasbiy darajasi va pedagogik mahoratini uzlusiz oshirib borish;

professor-o'qituvchilar ilmiy ishlarining natijadorligini oshirish, ularning xalqaro tan olingen ilmiy jurnallarida nashriy faolligini oshirish;

tibbiyot ta'limi va ilm-fanining amaliy sog'liqni saqlashga integratsiya qilinishini ta'minlash hamda tibbiy yordam ko'rsatish darajasini oshirish;

Institutning xorijiy oliy ta'lif muassasalari bilan hamkorligini kengaytirish, xorijiy oliy ta'lif muassasalaridan mutaxassislarni jalb etish va hamkorlikda ilmiy izlanishlarni olib borish;

talabalar, professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun munosib shart-sharoitlar yaratish;

tibbiyot sohasidagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanishda Institut bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish;

Institut va Klinika boshqaruviga ilg'or xorijiy menejment tizimini joriy qilish.

2. Quyidagilar:

Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" [1-ilovaga](#) muvofiq;

Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasini 2021 — 2023-yillarda jihozlash parametrlari [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Institut va Klinika faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2021/2022 o'quv yilidan boshlab quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin:

akademik V. Vaxidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining — xirurgiya, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining — kardioxirurgiya, Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining — neyroxirurgiya, Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining — urologiya, Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining — nefrologiya yo'nalishlari bo'yicha yuridik shaxs bo'limgan filiallarini tashkil etish hamda yuqori texnologik diagnostika va davolash usullarini joriy etish;

transplantologiya, endoxirurgiya, rentgenendovaskulyar xirurgiya, endourologiya, nevrologiya va tibbiy genetika yangi bo'limlari hamda immunogenetik laboratoriyanı tashkil qilish;

Institut va Klinika faoliyatini raqamlashtirish;

Institut pedagog xodimlari va Klinika tibbiyot xodimlari xorijda stajirovka o'tashini va malaka oshirishini tashkil etish;

o'quv va davolash jarayoniga xorijiy mutaxassislarni taklif etish;

Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlaridagi tibbiyot muassasalari xodimlarining muntazam ravishda malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash;

tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dolzarb mavzudagi o'quv dasturlarini tayyorlash;

ta'lif jarayonida nazariy va amaliy ko'nikmalarining uzviyligini ta'minlash hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofadan o'qitish va telemeditsina uslublarini keng tatbiq etish;

klinik kafedralar va bo'limlarni mahalliy hamda xorijiy hamkorligini yo'lga qo'yish.

4. Sog'liqni saqlash vazirligining quyidagi takliflari ma'qullansin:

*Oldingi tahrirga qarang.*

a) 2022/2023 o'quv yilidan boshlab barcha tibbiyot oliy ta'lif muassasalarining "Davolash ishi", "Pediatriya ishi" va "Tibbiy-profilaktika ishi" ta'lif yo'nalishlari bitiruvchi kurs talabalari uchun o'quv yili davomida (qoida tariqasida, doimiy yashash joylaridagi yoki o'zlarining roziligi bilan boshqa joylardagi) tibbiyot muassasalarida amaliyat o'tashini, rejadagi ma'ruza va o'quv mashg'ulotlarining nazariy qismini masofaviy shaklda olib borilishini joriy qilish;

*(4-bandning "a" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 561-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2022-y., 09/22/561/0886-son)*

b) Institut va Klinika tomonidan aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish, kasalliklar profilaktikasi va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda "Shahrixon tumani tajribasi"ni joriy qilish.

Belgilansinki, ta'lif, ilm-fan va amaliyat integratsiyasini ta'minlash maqsadida Institut kafedralari va Klinika tibbiyot xodimlari Shahrixon tumani birlamchi tibbiyot muassasalariga biriktiriladi hamda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

aholining salomatlik holatini, kasalliklarni keltirib chiqaruvchi xavf omillarining tarqalganlik darajasini o'rgangan holda ularni xavf guruhrigiga tasniflash;

xavf guruhrigiga ko'ra ularga individual maslahat berish, ko'rik va nazoratlarni amalga oshirish, sog'lomlashtirish va rehabilitatsiyaning individual choralarini belgilash;

aholi orasida eng ko'p tarqalgan va asosiy o'lim sabablari bo'lgan kasalliklarni erta aniqlash choralarini ko'rish, maqsadli skrining tadbirlarini amalga oshirish;

aholining salomatlik holati, kasallikni keltirib chiqaruvchi xavf omillarining tarqalganlik holati va kasallanish darajasidan kelib chiqib, maxsus elektron dastur asosida "Salomatlik profili"ni yaratish;

mahallalarda "Salomatlik maktabi" faoliyatini yo'liga qo'yish, nafaqadagi o'qituvchi va tibbiyot xodimlari, ziyorilar hamda yoshlardan iborat volontyorlik jamiyatlarini tuzish;

ko'p tarmoqli markaziy poliklinikada "To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi xonalari"ni tashkil qilish va maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shifokor va hamshiralalar tomonidan aholi orasida ommaviy targ'ibot tadbirlarini tashkillashtirish va individual maslahat berish tizimini joriy qilish;

barcha birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida shifokor oldi ko'rikлari orqali o'rta tibbiyot xodimlari tomonidan eng ko'p uchraydigan kasalliklar xavf omillarini aniqlash, aholini antropometrik o'chovlardan o'tkazish, 5 yoshgacha bolalar o'sish va rivojanishi monitoringini olib borish kabi vazifalarni mustaqil bajarishini ta'minlash;

yuqumli bo'limgan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzi asoslari bo'yicha tibbiy brigada vakillarining amaliy va nazariy bilimlarini oshirish;

aholi orasida to'g'ri ovqatlanish asoslari, kasalliklar profilaktikasi, jismoniy faoliyk, shaxsiy va jamoat gigiyenasi, kun tartibini to'g'ri tashkillashtirish va zararli odatlardan voz kechish bo'yicha targ'ibotning zamонави uslublarini (aksiya, infotainment, sport musobaqalari, tanlov, fleshmob) amaliyotga joriy qilish va ommalashtirish choralarini ko'rish.

Sog'liqni saqlash vazirligi "Shahrixon tumani tajribasi"ning ijobjiy natijalarini baholagan holda uni bosqichma-bosqich Andijon viloyatining boshqa hududlariga ham tatbiq qilish choralarini ko'rsin.

## 5. Sog'liqni saqlash vazirligi:

Institut pedagog xodimlari va Klinika tibbiyot xodimlarini xorijga stajirovka o'tashga va malaka oshirishga yuborish, shuningdek, o'quv va davolash jarayoniga xorijiy mutaxassislarini taklif etish xarajatlari Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilishini tashkil etsin;

talabalar amaliyot o'tashini ta'minlash, ularda bemorlar bilan ishslash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida to'rtinchchi kursdan boshlab davolash muassasalarida va tez tibbiy yordam xizmatida volontyorlik asosida faoliyat olib borish tizimini joriy etsin;

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lif muassasalarini o'rtasida ta'lif jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 31-avgustdagagi PQ-5241-son **qaroriga** muvofiq biriktirilgan Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlari ta'lif dasturlarini tibbiyot oliy ta'lif muassasalarini ta'lif yo'nalishlari bo'yicha ta'lif dasturlari bilan o'zaro uzviyligini ta'minlasin;

2022/2023 o'quv yili boshlangunga qadar tibbiyot oliy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilari va sohaning boshqa yetuk mutaxassislarini jalb etgan holda professional ta'lif muassasalarida o'qitiladigan fanlar (modullar) bo'yicha o'quv adabiyotlari, o'qitish materiallari to'plamlari va elektron resurslar bilan tibbiyot texnikumlarini ta'minlashni tashkil etsin.

6. Moliya vazirligi mazkur qarorga **2-ilovalga** asosan 2021-yilda talab etiladigan mablag'larni 2021-yil Davlat budjeti parametrlarida olis va chekka hududlarda birlamchi va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish va ehtiyojmand aholi uchun skrining va davolash tadbirlariga xususiy shifoxonalarni jalb etishga rejalashtirilgan subsidiyalar uchun ko'zda tutilgan mablag'lar hisobidan Andijon viloyati mahalliy budgetiga ajratilishini ta'minlasin.

## 7. Andijon viloyati hokimligi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda:

Klinikani qisqa muddatlarda jihozlash va faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida birinchi bosqichda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan xarid qilinishi belgilangan tibbiy texnikalar bo'yicha shartnomalarni "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasida kompleks ekspertizadan o'tkazsin hamda kontrakt tuzilganligi to'g'risidagi axborotni maxsus axborot portaliga joylashtirgan holda, eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan 100 foiz oldindan mablag' ajratish orqali xarid amalga oshirilishini ta'minlasin;

2022-yil 10-yanvarga qadar xarid qilingan tibbiy texnikalar sifati va narxlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritsin.

8. Sog'liqni saqlash vazirligi va Andijon viloyati hokimligining Klinikaning mavjud binolarini (keyingi o'rnlarda — obyekt) qurilish-montaj va jihozlash ishlarini 2021-2022-yillarda amalga oshirish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Obyektda amalga oshiriladigan qurilish-montaj va jihozlash ishlarini qisqa muddatlarda yakunlash maqsadida, istisno tariqasida:

a) qurilish-montaj va jihozlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha:

Andijon viloyati hokimligining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasini — buyurtmachi etib;

"O'ztibloyiha" MChJni — bosh loyiha tashkiloti etib belgilashga;

buyurtmachi tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlash asosida bosh pudrat tashkilotini (qurilish-pudrat tashkilotlari elektron reytingida kamida "V" reyting bahosiga ega bo'lgan pudrat tashkilotlari orasidan) aniqlashga;

b) buyurtmachi, bosh loyiha va bosh pudrat tashkilotlariga:

asoslangan hisob-kitoblarga ko'ra qurilish-montaj va jihozlash ishlari uchun 30 foiz avans hamda zarur qurilish materiallarini xarid qilish uchun 50 foiz oldindan mablag' ajratishga;

2022-yil 1-aprelga qadar qurilish-montaj ishlarini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bilan bir vaqtida amalga oshirishga ruxsat berilsin.

9. Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida qurilish-montaj va jihozlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh TARKIBI

Belgilab qo'yilsinki, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish hamda jihozlash bo'yicha barcha shartnomalar va texnik topshiriqlar belgilangan tartibda "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasida kompleks ekspertizadan o'tkaziladi.

10. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Andijon viloyati hokimligi bilan birgalikda ikki hafta muddatda obyektda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishga zarur mablag'lar 2021-yilda markazlashgan kapital qo'yilmalar hisobidan ajratilishini, qurilish-montaj va jihozlash ishlarini amalga oshirishni 2022-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturida ko'zda tutilishini ta'minlasin.

11. Andijon viloyati hokimligi:

obyektga tashqi muhandislik va transport kommunikatsiyalarini qurish hamda ushu infratuzilmalarga ulanish tegishlicha ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilishini;

Sog'liqni saqlash vazirligi, buyurtmachi va bosh pudrat tashkiloti bilan birgalikda obyektning qurilish-montaj hamda jihozlash ishlarini 2022-yil yakuniga qadar to'liq yakunlanishini hamda foydalanishga topshirilishini ta'minlasin.

12. Qurilish vazirligi belgilangan tartibda obyekt bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarining ekspertizadan o'tkazilishini hamda qurilish-montaj ishlarining sifatli bajarilishi yuzasidan davlat arxitektura-qurilish nazorati o'rnatilishini ta'minlasin.

13. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Institut va Klinikani belgilangan tartibda keng polosali internet va telefon aloqasi bilan ta'minlasin.

14. Institutning yangi o'quv binosi va Markaziyl ilmiy-tekshirish laboratoriysi binosi 2023-yilda hamda davlat-xususiy sheriklik asosida yangi qurilayotgan 1 600 o'rinni talabalar turar joylari 2022 — 2025-yillarda foydalanishga topshirilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Belgilansinki, Institutning yangi o'quv binosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi Andijon" shaharchasini barpo etish va Andijon viloyatida tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 21-iyundagi PQ-5154-son qaroriga muvofiq ajratilgan mablag'lar va Institutning budgetdan tashqari mablag'lari, Markaziyl ilmiy-tekshirish laboratoriysi binosi Institutning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan quriladi.

Sog'liqni saqlash vazirligi:

Andijon viloyati hokimligi bilan birgalikda mazkur bandda ko'rsatilgan binolar belgilangan muddatlarda qurilishini hamda foydalanishga topshirilishini;

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda yangi o'quv binolaridagi Markaziyl ilmiy-tekshirish laboratoriylarini hamda simulatsion o'quv markazini xalqaro moliya tashkilotlari mablag'lari hisobidan jihozlanishini ta'minlasin.

15. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlari Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlarining qabul hamda yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlari tibbiy oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilishini ta'minlasin.

16. Bosh prokuraturaga Moliya vazirligi va Hisob palatasi bilan birgalikda ushu qaror doirasida amalga oshiriladigan qurilish-montaj ishlari va tibbiy jihozlarni xarid qilish uchun ajratilgan mablag'larning maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish tavsiya etilsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'zları qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushu qarorga muvofiqlashtirsin.

18. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rnbosari, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri B.A. Musayev hamda Andijon viloyati hokimi Sh.Q. Abduraxmonov zimmasiga yuklansin.

Toshkent sh.,  
2021-yil 25-noyabr,  
713-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-noyabrdagi 713-son qaroriga  
1-ILOVA

Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

**1-ILOVA**  
Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

**2-ILOVA**  
Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasini 2021 — 2023-yillarda jihozlash PARAMETRLARI

**3-ILOVA**  
Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida qurilish-montaj va jihozlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh TARKIBI

## **Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha**

### "YO'L XARITASI"

| T/r   | Chora-tadbirlar nomi  | Amalga oshirish mexanizmi   | Bajarish muddati   | Moliyalashtirish manbasi  | Mas'ul ijrochilar   |
|---|---|---|--------------------|---|---|
| <b>I. Andijon davlat tibbiyot instituti o'quv jarayonlarini, ilmiy ishlar va xorijiy aloqalarni yanada rivojlantirish</b> |   |   |                    |   |   |
| 1.  | Andijon davlat tibbiyot instituti (keyingi o'rnlarda — Institut) o'quv jarayonlarini o'qitining kredit-modul tizimiga to'liq o'tkazish.   | <p>1. 2021/2022 o'quv yilidan bakalavriat ta'lif yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarning 1-bosqich talabalari uchun kredit-modul tizimini joriy etish.</p> <p>2. 2025-yilga qadar Institut o'quv jarayonini to'liq kredit-modul tizimiga o'tkazish.</p>  | 2021 — 2025-yillar | -   | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi (Toshkulov), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov) |
| 2.  | Barcha o'quv rejalarini va fan dasturlari, bakalavriat ta'lif yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari malaka talablarini kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida ishlab chiqish va tasdiqlash. | <p>1. Malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlari bo'yicha kadrlar buyurtmachilari fikr va mulohazalari hamda takliflarini o'rganib chiqish.</p> <p>2. Kadrlar buyurtmachilari fikr va mulohazalari hamda takliflari asosida bakalavriat ta'lif yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarning malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish.</p> | 2022 — 2026-yillar | -   | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi (Toshkulov), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov) |
| 3.  | Professor-o'qituvchilar tarkibining faoliyat turlari bo'yicha vaqt me'yorlarini belgilash.  | Kredit-modul tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar tarkibining faoliyat turlari bo'yicha vaqt me'yorlarini qayta ko'rib chiqish.  | 2022-yil 1-aprel   | -   | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi (Toshkulov)  |
| 4.  | Institut uchun zamonaviy darsliklar va boshqa o'quv adabiyotlarini talabalar ehtiyojiga qarab yaratish va chop etish.   | <p>1. Talabalarning o'quv adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojini har yili yangi o'quv yili oldidan o'rganib chiqish.</p> <p>2. Ehtiyojga qarab professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv adabiyotlar yaratish rejasini shakllantirish.</p> <p>3. Yangi avlod o'quv adabiyotlarini talabalar sonidan kelib chiqib, ehtiyojga qarab chop etish.</p>   | 2022 — 2026-yillar | Hisob-kitob asosida Institutning budjetdan tashqari mablag'lari | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), institut rektori (Madazimov)   |
| 5.  | O'quv va davolash jarayoniga xorijiy mutaxassislarini jalb etish, xorijiy mutaxassislar ishtirokida masofaviy seminarlar, mahorat darslari, trening, vebinlar olib borish.                                | <p>1. Dolzarb yo'nalishlar bo'yicha xorijiy mutaxassislar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Qisqa va o'rta muddatli mehnat shartnomalarini tuzish.</p> <p>3. Xorijiy mutaxassislar ishtirokida masofaviy seminarlar, mahorat darslari, trening va vebinarlarni o'tkazish grafigini ishlab chiqish.</p>   | 2022 — 2026-yillar | Hisob-kitob asosida Institutning budjetdan tashqari mablag'lari | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov)  |
| 6.  | Institut professor-o'qituvchilarining xorijda malaka oshirishini tashkil etish.   | <p>1. Xorijda malakasini oshiradigan professor-o'qituvchilar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Reja-grafik asosida malaka oshirishni tashkillashtirish.</p>  | 2022 — 2026-yillar | Hisob-kitob asosida Institutning budjetdan tashqari mablag'lari | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov)  |
| 7.  | Tibbiyot va ta'lif muassasalari menejmenti bo'yicha Andijon davlat tibbiyot instituti (keyingi o'rnlarda — Institut) rahbar xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish.                                     | <p>1. Germaniyaning Rostok hamda Turkiyaning Xojitepa universitetlarida malaka oshiruvchi rahbar xodimlar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Rahbar xodimlarning tibbiyot va ta'lif muassasalari menejmenti bo'yicha o'qitilishini tashkil etish.</p>   | 2021-2022-yillar   | Hisob-kitob asosida Institutning budjetdan tashqari mablag'lari | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi (Toshkulov), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov) |

**Andijon davlat tibbiyot instituti va  
uning klinikasi faoliyatini tubdan  
takomillashtirish chora-tadbirlari  
to'g'risida**

**1-ILOVA**  
**Andijon davlat tibbiyot instituti va  
uning klinikasi faoliyatini tubdan  
takomillashtirish bo'yicha "YO'L  
XARITASI"**

**2-ILOVA**  
**Andijon davlat tibbiyot instituti  
klinikasini 2021 — 2023-yillarda  
jihozlash PARAMETRLARI**

**3-ILOVA**  
**Andijon davlat tibbiyot instituti  
klinikasida qurilish-montaj va  
jihozlash ishlarini tashkil etish va  
muvofiglashtirish bo'yicha ishchi  
guruhi TARKIBI**

|     |  |  |                         |   |  |
|-----|--|--|-------------------------|---|--|
| 8.  | Doktorantura va stajor-tadqiqotchilik institutiga (maqsadli doktoranturadan tashqari) to'lov-kontrakt asosida qabul kvotalarini belgilash.   | 1. Ilmiy salohiyati yetarli bo'lмаган kafedralalar ehtiyojini o'rganish.<br><br>2. Doktorantura va stajor-tadqiqotchilik qabul kvotalarini shakllantirish.   | 2021-2022-yillar        | -   | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov)         |
| 9.  | Professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar hamda talabalarning Springer, Elsevier, ProQuest, EBSCO, Web of Science va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan erkin foydalanish imkoniyatlarini yaratish.                         | 1. Professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilarni xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari platformasidan ro'yxatdan o'tkazish.<br><br>2. Xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari platformasidan foydalanish bo'yicha seminar-treninglar o'tkazish.<br><br>3. Xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarida indekslanuvchi jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish samaradorligini oshirish.<br><br>4. Ijobiy taqriz olingan ilmiy maqolalarni chop etish xarajatlarini qoplash.  | 2022—2026-yillar        | Hisob-kitob asosida Institutning budjetdan tashqari mablag'lari | Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov) |
| 10. | Institut nufuzini xalqaro darajaga ko'tarish choralarini ko'rish.  | 1. Institutni xorijiy oly ta'lim muassasalari bilan hamkorlik geografiyasini kengaytirish, xorijiy oly ta'lim muassasalari mutaxassislarini har yili Institutiga jalb etish va o'quv-ilmiy izlanishlarni hamkorlikda olib borish.<br><br>2. Professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar hamda talabalarning xalqaro tan olingan ilmiy jurnallarida nashriy faolligini oshirish.<br><br>3. Ta'lim dasturlarini xalqaro ta'lim dasturlariga integratsiya qilish, Institut boshqaruviga xorijiy mutaxassislar ishtirokida zamonaviy menejment tizimini joriy qilish.<br><br>4. Institutdagagi ta'lim dasturlarini xalqaro tibbiy ta'lim federatsiyasi (WFME) talabiga muvofiq bosqichma-bosqich akkreditatsiyadan o'tkazish.<br><br>5. Mahalliy va xalqaro ish beruvchilar o'rtasida institut bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish. | 2022—2026-yillar        | -   | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov)            |
| 11. | "Davolash ishi" va "Pediatriya ishi" ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi kurs talabalari uchun o'quv yilining birinchi semestri (5 oy) davomida doimiy yashash joylaridagi birlamchi tibbiyot muassasalarida amaliyot o'tashini tashkil etish. | 1. Bitiruvchi kurs talabalari doimiy yashash joylaridagi birlamchi tibbiyot muassasalariga biriktrish.<br><br>2. Rejadagi ma'ruza va o'quv mashg'ulotlarining nazariy qismini masofaviy shaklda olib borilishini ta'minlash.<br><br>3. Amaliyot yakuni bo'yicha integral baholash.   | 2022/2023 o'quv yilidan | -   | Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov)  |
| 12. | Institutni raqamlashtirish bo'yicha elektron kutubxona tizimi, elektron axborot almashish platformasi, telemeditsinani joriy qilish.   | 1. Elektron kutubxona tizimini takomillashtirish, uning ma'lumotlar bazasini yangi ilmiy va o'quv adabiyotlari bilan boyitib borish.<br><br>2. Elektron axborot almashish platformasini Institut boshqaruv tizimiga joriy qilish.<br><br>3. Telemeditsinani Institutning jarrohlik yo'nalishidagi kafedralarida yo'lga qo'yish hamda Institut va tuman tibbiyot muassasalari o'rtasida joriy qilish.   | 2021—2023-yillar        | Hisob-kitob asosida Institutning budjetdan tashqari mablag'lari | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov)   |

|   |   |                         |   |   |
|---|---|-------------------------|---|---|
| <p><b>Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida</b></p> <p><b>1-ILOVA</b><br/>Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"</p> <p><b>2-ILOVA</b><br/>Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasini 2021 — 2023-yillarda jihozlash PARAMETRLARI</p> <p><b>3-ILOVA</b><br/>Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida qurilish-montaj va jihozlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh TARKIBI</p> | <p>13. Institutning jozibadorligini oshiruvchi turli targ'ibot materiallari, shu jumladan bukletlar va videoroliklar tayorlash.</p> <p>1. Jozibadorlikni oshirishga qaratilgan targ'ibot materiallарini yaratish.</p> <p>2. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalarida targ'ibot ishlarini tashkil etish.</p> <p>3. Institut faoliyatini doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritishda mahalliy va markaziy televideniye, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni kengaytirish.</p> <p>4. Institut matbuot xizmati faoliyatini kuchaytirish va zarur jihozlar bilan ta'minlash.</p> | <p>2021-2022-yillar</p> | <p>Hisob-kitob asosida Institutning budjetdan tashqari mablag'lari</p>  | <p>Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi (Toshkulov), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov)</p>                              |
| <b>II. Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasini kompleks rivojlantirish hamda moddiy-teknik bazasini mostahkamlash</b>  |   |                         |   |   |
| <p>14. Yangi o'quv bino, markaziylimi tekshirish laboratoriya va talabalar turar joylarini qurish.</p>  | <p>1. Institut hududiga 1000 o'rini o'quv binosini qurish.</p> <p>2. Yangi markaziylimi tekshirish laboratoriysi binosini qurish.</p> <p>3. Ehtiyojdan kelib chiqib 1 600 o'rini talabalar turar joylarini barpo etish.</p>   | <p>2021—2023-yillar</p> | <p>50 mlrd. So'm (Budget mablag'lari)</p> <p>35 mlrd. So'm (Budgetdan tashqari mablag'lar)</p> <p>Davlat-xususiy sherikchilik asosida</p>   | <p>Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Moliya vazirligi (Ishmetov), Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi (Toshkulov), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov)</p> |
| <p>15. Institutning yangi ming o'rini o'quv binosi, Markaziy ilmiy-tekshirish laboratoriya hamda Institutning simulatsion o'quv markazi binolarini jihozlash.</p>   | <p>1. Institutning mavjud tibbiy jihozlarini xatlovdan o'tkazish va jihozlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.</p> <p>2. Xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb etish va jihozlash ishlarini tashkil etish.</p>   | <p>2021—2023-yillar</p> | <p>84 mlrd. so'm (xalqaro moliya institutlari mablag'lari)</p>  | <p>Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Vafayev)</p>   |
| <p>16. Klinikadagi mavjud jarrohlik yo'naliishidagi bo'limlarda (abdominal jarrohlik, gepatobiliar jarrohlik, yurak-qon tomir jarrohligi, oftalmologiya, otorinolaringologiya, neyroxirurgiya va boshqalar) kam invaziv va yuqori texnologik amaliyotlarni joriy etish.</p>   | <p>1. Klinika jarrohlik ixtisosligi yo'naliishidagi bo'limlarini tibbiy jihozlar bilan ta'minlash.</p> <p>2. Klinikada respublika darajasidagi barcha turdag'i jarrohlik amaliyotlarni joriy etish.</p> <p>3. Kafedra va bo'lim xodimlarini hamkor xorijiy va mahalliy yetuk ixtisoslashgan markazlarda malakasini oshirish va ko'nikmalarini rivojlantirish.</p> <p>4. Xorijiy va mahalliy mutaxassislar tashrifini tashkil etish.</p>   | <p>2021—2024-yillar</p> | <p>Hisob-kitob asosida respublika va mahalliy byudjet hamda Klinikaning o'z mablag'lari</p>   | <p>Andijon viloyati hokimligi (Abdurahmonov), Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev)</p>   |
| <p>17. Yuqori texnologik amaliyotlarni amalga oshirishni uslubiy jihatdan ta'minlash.</p>   | <p>1. Institut professor-o'qituvchilarini tomonidan darslik, o'quv qo'llanmalar yaratish va uni o'quv jarayoniga tatbiq etish.</p> <p>2. Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari tomonidan Klinikada yuqori texnologik amaliyotlarni amalga oshirishni uslubiy jihatdan ta'minlab borilishini tashkil etish.</p>   | <p>2021—2025-yillar</p> | <p>Budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan</p>  | <p>Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev)</p>  |
| <p>18. Klinikada tashkil etilayotgan respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari filiallari ishini tizimli tashkil etish maqsadida xodimlarning xorijiy klinikalarda malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlash.</p>  | <p>1. Malaka oshiradigan va stajirovka o'tadigan Klinika tibbiyot xodimlarining ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Klinika tibbiyot xodimlarini reaj-grafik asosida xorijiy klinikalarga malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun yuborish.</p>   | <p>2021-2022-yillar</p> | <p>Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg'armasi mablag'lari</p> | <p>Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev)</p>  |

**Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**

**1-ILOVA**

**Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"**

**2-ILOVA**

**Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasini 2021 — 2023-yillarda jihozlash PARAMETRLARI**

**3-ILOVA**

**Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida qurilish-montaj va jihozlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh TARKIBI**

|     |   |   |  |  |  |
|-----|---|---|--|--|--|
| 19. | Klinika va tuman (shahar) tibbiy-profilaktika muassasalari o'rtaida yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha tizimli aloqalarni o'rnatish.   | <p>1. Klinika hamda tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining rejali jarrohlik bo'limgari o'rtaida reja-jadval asosida amaliy ishlarni tashkil etish.</p> <p>2. Klinika xodimlarining chekka hududlarga tashriflarni amalga oshirish.</p> <p>3. Tashriflar doirasida bemorlar ko'rikralarini, mahorat darslari, seminarlar o'tkazish.</p>   | 2021-2022-yillar   | -  | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov)                                 |
| 20. | Klinikaning bino va inshootlarida (keyingi o'rnlarda — obyekt) zamonaviy talablar asosida qurilish-montaj va jihozlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish. | <p>1. Obyektni loyihalash uchun dastlabki ruxsat berish hujjatlarini rasmiylashtirish.</p> <p>2. Loyiha tashkiloti Institut mutaxassislarini jalb qilgan holda Klinikaning texnologik jarayonlari loyihalarini va konsepsiyasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Qurilish maydonida muhandislik-texnik qidiruv ishlarini amalga oshirish hamda hisobtlarni tayyorlash.</p> <p>4. Texnik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda loyihalash uchun texnik topshiriqlarni ishlab chiqish, mutasaddi idoralar bilan kelishish hamda o'rnatilgan tartibda tasdiqlash.</p> <p>5. Tasdiqlangan konsepsiya asosida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.</p> <p>6. Loyiha-smeta hujjatlarini mutasaddi idoralar bilan kelishish, ekspertizadan o'tkazish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlash.</p> <p>7. O'rnatilgan tartibda qurilish tashkiloti bilan shartnoma tuzish, shuningdek qurilish-montaj ishlarini moliyalashtirish.</p> <p>8. Reja-grafik asosida qurilish-montaj ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish va belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirish.</p> | <p>2021-yil IV chorak</p> <p>2022-yil I chorak</p> <p>2022-yil IV chorak</p> | <p>150 mlrd. so'm<br/>(Investitsiya dasturi doirasida markazlashgan kapital qo'yilmalar)</p> <p>Andijon viloyati hokimligi (Abdurahmonov), Qurilish vazirligi (Zakirov), Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (Boboyev)</p> |  |
| 21. | Klinika bo'limlarini yuqori texnologik tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlash.   | <p>1. Tibbiy asbob-uskunalarni xatlovdan o'tkazish.</p> <p>2. Zarur bo'lgan tibbiy asbob-uskunalar ro'yxatini shakllantirish va xarid qilish.</p>   | <p>2021 — 2023-yillar</p> <p>shundan:</p> <p>2021-yil</p> <p>2022-2023-yillar</p> <p>2023-yil</p>  | <p>70 mlrd. so'm<br/>(Budget va budgetdan tashqari mablag'lari)</p> <p>37,7 mlrd. so'm<br/>(Budget mablag'lari)</p> <p>24,2 mlrd so'm<br/>(Budget mablag'lari)</p> <p>8,1 mlrd. so'm<br/>(Klinikaning budgetdan tashqari mablag'lari)</p>  | <p>Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Moliya vazirligi (Ishmetov), Andijon viloyati hokimligi (Abdurahmonov)</p> |
| 22. | Klinikada zamonaviy ma'lumot olish xizmatini yaratish, faoliyatini to'liq raqamlashtirish.  | <p>1. Klinika bo'yicha yagona interaktiv ma'lumotlar bazasini yaratish.</p> <p>2. Tizimning ishlashi uchun kompyuter va boshqa zarur uskunalar sotib olish, tizimni ishga tushirish.</p>  | 2022-2023-yillar   | Hisob-kitob asosida  | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Andijon viloyati hokimligi (Abdurahmonov)                                     |

**Andijon davlat tibbiyot instituti va  
uning klinikasi faoliyatini tubdan  
takomillashtirish chora-tadbirlari  
to'g'risida**

**1-ILOVA**  
**Andijon davlat tibbiyot instituti va  
uning klinikasi faoliyatini tubdan  
takomillashtirish bo'yicha "YO'L  
XARITASI"**

**2-ILOVA**  
**Andijon davlat tibbiyot instituti  
klinikasini 2021 — 2023-yillarda  
jihozlash PARAMETRLARI**

**3-ILOVA**  
**Andijon davlat tibbiyot instituti  
klinikasida qurilish-montaj va  
jihozlash ishlarini tashkil etish va  
muvofiglashtirish bo'yicha ishchi  
guruhi TARKIBI**

| <b>III. Shahrixon tumani aholisining salomatligini tiklash</b> |  |  |                    |   |   |
|--|--|--|--------------------|---|---|
| 23.  | Birlamchi tizim muassasalarining amaldagi shtat birligini qamralganlik holatini o'rganish va vakant o'rnlarni to'ldirish.  | 1. Birlamchi tizim muassasalaridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirilish.<br><br>2. Vakant lavozimlarni to'ldirish choralari ko'rish.  | 2021-yil IV chorak | - | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Andijon viloyati hokimligi (Abdurahmonov), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov) |
| 24.  | Andijon davlat tibbiyot instituti klinik kafedralarini Shahrixon tumanidagi birlamchi tibbiyot muassasalariga biriktirish. | 1. Institut klinik kafedralarini biriktirish bo'yicha taklif ishlab chiqish hamda tasdiqlash uchun viloyat hokimligiga kiritish.<br><br>2. Biriktirilgan kafedralarning Shahrixon tumaniga doimiy ravishda tashriflarini tashkil etish.<br><br>3. Biriktirilgan mutaxassislar tomonidan joylarda tibbiy ko'rikлarni o'tkazish va birlamchi bo'g'in shifokorlariga "Mahorat darslari", seminarlar tashkil etish.  | 2021-2022-yillar   | - | Andijon viloyati hokimligi (Abdurahmonov), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov)  |
| 25.  | Shahrixon tumani aholisiga ixtisoslashtirilgan malakali tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish.                          | 1. Aholining salomatlik holatini o'rgangan holda xavf guruhlariga tasniflash.<br><br>2. Tumandagi biriktirilgan kafedralar, professor-o'qituvchilar tomonidan 3, 4-guruh bemorlari orasida ko'p uchrayotgan kasalliklarni o'rganib chiqish va Institut mutaxassislari tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar o'tkazish va davolash choralarini ko'rish.<br><br>3. Kasallik keltirib chiqaradigan xavf omillarini erta aniqlab, bartaraf etish choralarini ishlab chiqish, maqsadli skrining tadbirlarini amalga oshirish.<br><br>4. Har bir mahallaning "Salomatlik profili"ni yaratish.<br><br>5. Mahallalarda "Salomatlik maktabi" faoliyatini yo'lga qo'yish.<br><br>6. Tumanda kam invaziv va yuqori texnologik operatsiyalar o'tkazishni yo'lga qo'yish. | 2021-2022-yillar   | - | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Andijon viloyati hokimligi (Abdurahmonov), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov) |
| 26.  | Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va aholi tibbiy madaniyatini oshirish.  | 1. Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikada "To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi xonalari"ni tashkil qilish.<br><br>2. Yuqumli bo'limgagan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzi asoslari bo'yicha tibbiy brigada vakillarining bilimlarini oshirish.<br><br>3. Institutning yetakchi olimlari tomonidan ommaviy axborot vositalari orqali sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish, tibbiy savodxonlik bo'yicha targ'ibot ishlarini o'tkazish.<br><br>4. Kasalliklar va ularning oldini olish bo'yicha bukletlar va boshqa targ'ibot materiallarini har bir xonadonga yetkazish.   | 2021-2022-yillar   | - | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov)  |

Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

**1-ILOVA**  
Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

|   |  |                     |   |  |
|---|--|---------------------|---|--|
| 27. Birlamchi tibbiyot muassasalarida onkologik va gemitologik xizmat sifati hamda samaradorligini yanada yaxshilash. | 1. Institut onkologiya va gemitologiya kafedrasi professor-o'qituvchilarini har bir birlamchi tizim muassasalariga biriktirish.<br><br>2. Onkologiya, gospital terapiya va endokrinologiya kafedralari tomonidan birlamchi tizim mutaxassislarining malakasini oshirish bo'yicha 36 soatlik ishchi dastur ishlab chiqish va reja asosida joylarda mutaxassislar malakasini oshirish. | Reja-grafik asosida | - | Sog'liqni saqlash vazirligi (Musaov), Andijon viloyati hokimligi (Abdurahmonov), Andijon davlat tibbiyot instituti (Madazimov) |
|---|--|---------------------|---|--|

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-noyabrdagi 713-son qaroriga  
2-ILOVA

### Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasini 2021 — 2023-yillarda jihozlash PARAMETRLARI

mln so'm

**3-ILOVA**  
Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida qurilish-montaj va jihozlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh TARKIBI

| T/r          | Bo'limlar nomi  | Tibbiy jihoz |               | shu jumladan:                            |               |  |               |  |              |
|--------------|---|--------------|---------------|--|---------------|--|---------------|--|--------------|
|              |   | Soni         | Summasi       | 1-bosqich<br>(2021-yil budjet hisobidan) |               | 2-bosqich<br>(2022-2023-yillar budjet hisobidan) |               | 3-bosqich<br>(2023-yil pullik xizmatlar hisobidan) |              |
|              |   |              |               | soni                                     | summasi       | soni   | summasi       | soni   | summasi      |
| <b>Jami:</b> |   | <b>706</b>   | <b>70 034</b> | <b>357</b>                               | <b>37 700</b> | <b>176</b>                                       | <b>24 203</b> | <b>173</b>   | <b>8 131</b> |
| 1.           | Ikkinchи xirurgiya, Transplantologiya bo'limi               | 19           | 4 523         | 19                                       | 4 523         |  |               |  |              |
| 2.           | Rentgen-radiologiya bo'limi                                 | 4            | 12 089        | 2  | 10 803        | 1  | 386           | 1  | 900          |
| 3.           | Neyroxirurgiya bo'limi                                      | 23           | 3 834         | 22                                       | 3 084         |  |               | 1  | 750          |
| 4.           | Vertebrologiya bo'limi                                      | 11           | 2 155         | 11                                       | 2 155         |  |               |  |              |
| 5.           | Birinchi jarrohlik bo'limi                                  | 6            | 1 173         | 2  | 985           |  |               | 4  | 188          |
| 6.           | Ikkinchи terapiya bo'limi — Pulmonologiya                   | 12           | 408           | 11                                       | 108           |  |               | 1  | 300          |
| 7.           | Birinchi terapiya Kardiologiya bo'limi                      | 11           | 1 699         | 2  | 938           | 9  | 761           |  |              |
| 8.           | Beshinchи terapiya Kardio-revmatologiya bo'limi             | 6            | 935           | 2  | 286           | 4  | 649           |  |              |
| 9.           | Oftalmologiya bo'limi                                       | 18           | 5 303         | 17                                       | 2 303         | 1  | 3 000         |  |              |
| 10.          | Uchinchi xirurgiya, Jarrohlik va urologiya kafedrasi        | 9            | 3 034         | 2  | 1 010         | 5  | 1 989         | 2  | 35           |
| 11.          | To'rtinchи terapiya gastroenterologiya-gepatologiya bo'limi | 3            | 1 097         | 3  | 1 097         |  |               |  |              |
| 12.          | Sun'iy buyrak bo'limi                                       | 23           | 1 340         | 21                                       | 1 338         | 2  | 2             |  |              |
| 13.          | Markaziy sterilizatsiya bo'limi                             | 13           | 792           | 13                                       | 792           |  |               |  |              |
| 14.          | Yiringli jarrohlik bo'limi                                  | 6            | 262           | 3  | 137           | 2  | 105           | 1  | 20           |
| 15.          | Nevrologiya bo'limi   | 35           | 649           | 35                                       | 649           |  |               |  |              |
| 16.          | Ichki dorixona bo'limi                                      | 16           | 445           | 14                                       | 318           | 2  | 127           |  |              |
| 17.          | Qabulxona bo'limi   | 27           | 650           | 27                                       | 650           |  |               |  |              |
| 18.          | Laboratoriya bo'limi  | 56           | 1 868         | 29                                       | 1 318         | 15   | 484           | 12   | 66           |
| 19.          | Proktologiya bo'limi  | 13           | 1 118         | 4  | 223           | 5  | 814           | 4  | 81           |
| 20.          | Amaliyot bloki bo'limi                                      | 39           | 2 080         | 11                                       | 673           | 14   | 844           | 14   | 562          |
| 21.          | Fizoterapiya va balneofizoterapiya bo'limi                  | 48           | 1 057         | 11                                       | 674           | 23   | 276           | 14   | 108          |
| 22.          | Anesteziologiya-reanimatsiya bo'limi                        | 182          | 8 228         | 69                                       | 1 250         | 32   | 4 340         | 81   | 2 638        |
| 23.          | Lor bo'limi   | 18           | 6 922         | 2  | 139           | 9  | 6 088         | 7  | 696          |
| 24.          | Diagnostika bo'limi   | 18           | 925           | 7  | 193           | 8  | 392           | 3  | 340          |
| 25.          | Endokrinologiya bo'limi                                     | 31           | 433           | 0  | 0             | 29   | 283           | 2  | 150          |
| 26.          | Qon banki bo'limi   | 5            | 159           | 4  | 35            | 1  | 124           |  |              |
| 27.          | Urologiya bo'limi   | 7            | 727           | 1  | 107           | 6  | 620           |  |              |
| 28.          | Maslahat poliklinikasi bo'limi                              | 23           | 3 255         | 5  | 1 610         | 2  | 698           | 16   | 947          |

|     |  |    |       |   |     |   |       |    |     |
|-----|--|----|-------|---|-----|---|-------|----|-----|
| 29. | Endoskopiya bo'limi  | 4  | 2 199 |   |     | 4 | 2 199 |    |     |
| 30. | Uchinchi terapiya gematologiya va shoshilinch terapiya bo'limi | 20 | 675   | 8 | 301 | 2 | 24    | 10 | 350 |

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-noyabrdagi 713-son qaroriga  
3-ILOVA

Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

**1-ILOVA**  
Andijon davlat tibbiyot instituti va uning klinikasi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITASI"

**2-ILOVA**  
Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasini 2021 — 2023-yillarda jihozlash PARAMETRLARI

**3-ILOVA**  
Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida qurilish-montaj va jihozlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh TARKIBI

**Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida qurilish-montaj va jihozlash ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh**

**TARKIBI**

- |                      |   |  |
|----------------------|---|--|
| 1. D.Q. Adilov       | — | qurilish vazirining birinchi o'rinnbosari, <i>ishchi guruh rahbari</i>                                   |
| 2. B.A. Musayev      | — | sog'liqni saqlash vaziri, <i>ishchi guruh rahbari o'rinnbosari</i>                                       |
| 3. Sh.S. Xidoyatov   | — | uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vaziri   |
| 4. Sh.A. Abidov      | — | Vazirlar Mahkamasi kotibiyati mudiri   |
| 5. I.N. Xolmatov     | — | Andijon viloyati hokimi o'rinnbosari   |
| 6. A.Sh. Inoyatov    | — | sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinnbosari   |
| 7. A.M. Boboyev      | — | iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri o'rinnbosari                                  |
| 8. J.I. Abruyev      | — | moliya vaziri o'rinnbosari   |
| 9. A. Soatov         | — | Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi boshlig'ining birinchi o'rinnbosari |
| 10. Lavozimiga ko'ra | — | Qurilish vazirligi boshqarmasi boshlig'i, <i>ishchi guruh kotibi</i>                                     |

Izoh. Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarini bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.11.2021-y, 09/21/713/1097-son; 04.10.2022-y, 09/22/561/0886-son)